


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:

№ BD- YBA1106

2022 yil "08" 30



"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I. Xalmuradov

2022 yil "08" 30

YER BILIMI ASOSLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530 000- Fizikaga oid fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60520100 – Gidrometeorologiya yo'nalishi

Samarqand 2022

Fan/modul kodi YBA1106	O'quv yili 2022-2023	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
		Yer bilimi asoslari	60	90
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga geografik qobiqning rivojlanishi, tuzilishi, bo'linishi, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro ta'sirini o'rgatish, Yer haqida umumiy va dastlabki tabiiy geografik bilimlarni, Yerning yadrosi, mantiyasi, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma'lumotlar va ularda ro'y beradigan hodisalar, ularning xususiyatlari haqida bilimlar berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, ularning mohiyati, geografik qobiqning tuzilishi, tarkibiy qismlari, litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosfera hamda ularning xususiyatlari, geografik qobiqning hududiy tabaqalanishi, inson va tabiat munosabatlarining geografik asoslarini o'rgatish va ularda tabiatdan foydalanishda geografik bilimlarni qo'llay olish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.</p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>Umumiy yer bilimi fanining o'rganish ob'ekti va predmeti. Maqsadi va vazifalari. Boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tadqiqot usullari.</p> <p>“Umumiy yer bilimi” fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Geografik qobiq, xususiyatlari va qonuniyatlari. Ilk geografik bilim kurtaklarining paydo bo'lishi. Antik davrda geografiyaning rivojlanishi. “Umumiy yer bilimi” g'oyalarning Aristotel, Eratosfen, Ptolemey, Strabon ishlarida rivojlantirilishi. Geografiya fanining o'rta asrlarda rivojlanishi. Mazkur davrda geografiya fanining Sharq mamlakatlarida rivojlanishi (Xorazmiy, Farg'oni, Beruniy, Ibn Sino, Bobur va boshqalar). Buyuk geografik kashfiyotlarning geografiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati. XIX asrda ilmiy geografiyaning rivojlanishi. Geografiya fanining hozirgi paytda rivojlanishi. Geografik qobiq, biosfera, geografik muhit ta'limotlarining yaratilishi. O'zbekistonda tabiiy geografiya fanining rivojlanishi. Umumgeografik usullar, ekspeditsiya, tasviriy, qiyosiy, o'xshatish, tizimli, kartografik, tarixiy, aerokosmik usullar. Dala tadqiqot, laboratoriya, geokimyoviy, geofizik, geografik axborot tizimlari (GAT), modellashirish, matematik usullar.</p> <p align="center">Olam, Quyosh sistemasi va Yer</p> <p>Koinot haqida asosiy tushunchalar: Olam, Metagalaktika, Galaktika, yulduzlar. Quyosh sistemasi va uning tuzilishi. Osmon jismlari va ularning turlari. Quyosh, sayyoralar, asteroidlar, meteorlar, meteoritlar, kometalar. Yerga fazoning ta'siri. Magnitosfera.</p> <p align="center">Geografik qobiq tarkibi va tuzilishi, geografik qobiqning umumiy qonuniyatlari, geografik qobiqning rivojlanishi</p> <p>Geografik qobiqning tarkibi: litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera. Geografik qobiqning umumiy tavsifi va asosiy xususiyatlari: moddalarning xilma-xilligi, nomuvozanatliligi: tarkibining doimo murakkablashib borishi va h.k. Geografik qobiqdagi moddalarning kimyoviy va fizik xossalari. Geografik qobiqning tarkibiy qismlari. Geografik qobiqning bir butunligi, modda va energiya almashinuvi, zonallik va azonallik, davriy va nodavriy hodisalar.</p> <p>Rivojlanish manbalari. Geosferalarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Geografik qobiq</p>			

tarkiblarining rivojlanishi (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera). Geografik qobiq rivojlanishining asosiy bosqichlari. Yerdə hayotning paydo bo'lishi. Geografik qobiqning to'rtlamchi davrda rivojlanishi. Yer yuzasi tabiati rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.

Litosfera

Yer po'sti. Yer po'stining tarkibi. Yer po'sti tuzilishining asosiy xususiyatlari. Yerning ichki tuzilishi. Litosfera plitalari, ularning harakati. Umumsayyoraviy relef shakllarining joylanishi.

Asosiy tog' bo'lish bosqichlari, yer yuzasining asosiy relef shakllari.

Geoxronologik jadval. Asosiy tog' bo'lish bosqichlari. Baykal, kaledon, gersin, mezozoy, alp. Platformalar, geosinklinallar, qalqonlar, plitalar.

Yer yuzasi tuzilishning asosiy xususiyatlari. Yer yuzasida quruqlik va suvlikning taqsimlanishi. Qit'a va materik tushunchasi. Materiklar, orollar, yarim orollar. Relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar. Endogen (ichki) va ekozen (tashqi) kuchlar tushunchalari. Quruqlik yuzasidagi asosiy relef shakllari – tekislik, pasttekislik, adirlar, qirlar, platolar, tog' tizmalari, tog'lik va yassi tog'lik. Tog'liklarning paydo bo'lishi va balandligiga ko'ra turlari. Cho'kma va botiqlar. Gipsografik egri chiziq. Materiklar va okeanlarning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar, Arxey va erta proterozoy bosqichi, O'rta va kechki proterozoy bosqichi, Erta paleozoy bosqichi, Kechki paleozoy bosqichi, Mezozoy erasi, kaynozoy erasi

Endogen va Ekzogen jarayonlar

Magmatizm va vulqonizm, tektonik harakatlar, Platformalar, Zilzila. Metamorfizm. Yer po'sti. geologik jarayonlar. Nurash qobig'i. Pedosfera. Nurash qatlami va uning inson hayotida tutgan o'rnini. Nurashning turlari, ularning yer yuzi bo'yicha tarqalishi. Nurashni vujudga keltiruvchi omillar. Tog' jinslarining umumiy fizik va kimyoviy xossalari.

Gidrosfera

Gidrosfera haqida umumiy tushuncha. Uning tarkibiy qismlari. Suvning tabiatda paydo bo'lishi. Suvning yer yuzida taqsimlanishi. Suvning aylanma harakati, katta va kichik aylanma harakatlar.

Quruqlikdagi suvlar

Yer usti suvlari. Daryolar va ularning ishi. Daryo sistemasi Ko'llar va ularning turlari, tarqalishi. Daryo, o'zan, terrasa, qayir, oqim, ko'l, oqar suvlar. Yemirish – erroziya ishi daryo nishabligi. Xionosfera. Qor chizig'i. Firn. Muzliklar va ularning ishi. Muzloqlar. Botqoqliklar.

Yer osti suvlari

Yer osti suvlari, ularning turlari va tarqalishi. Mineral va termal suvlar. Artezian suvlari. To'yinish manbalari. Yer yuzasiga ta'siri.

Atmosfera va Quyosh radiatsiyasi

Atmosfera tushunchasi. Atmosferaning tarkibi. Atmosfera qatlamlari – troposfera, stratosfera, mezosfera, termosfera (ionosfera), ekzosfera, ozon qatlami.

Atmosfera harakatlari: havo bosimi va havo massalari, shamollar

Quyosh radiatsiyasining kelishi va taqsimlanishi. Yerning shakli. Quyosh tushish burchagi. Havo harorati va uning dinamikasi. Albedo. Iqlim mintaqalarini shakllanishi. Havo bosimi. Barik relef. Past va yuqori bosim markazlari, siklon va antitsiklon tushunchalari. Havo massalari va frontlari. Havo massalarining harakat turlari. Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar.

Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar. Shamollarning geografik tarqalishi. Shamollarning ahamiyati. Shamollarning geografik va geologic ishi

Atmosferadagi namlik, bulutlar, atmosfera yog'inlari

Bug'lanish. Namlik. Nisbiy va mutloq namlik. Bulutlar, ularning turlari. Yog'inlar – yomg'ir, qor, do'l, shudring, tuman.

Biosfera – Yer shari tirik organizmlari va ularning turlari

Biosfera va uning tuzilishi. Yerdə hayotning paydo bo'lishi. Biosfera haqida ta'limot.

Hayotning tarqalish chegarasi. Organizmlarning turlari va ularning vazifasi (faoliyat). Ekologiya, ekologik holat (vaziyat), tabiatni muhofaza qilish tushunchalari. Ekologik omillar (abiotik va biotik). Biotsenoz, fitotsenoz, zootsenoz, biogeotsenoz. O'simliklarning tekislik va balandliklar bo'yicha tarqalishi. Okeanlarning organik dunyosi (plankton, nekton, bentos). Biomassa.

Tirik organizmlar evolyutsiyasi. Tirik organizmlar va ularning turlari. Oddiy va murakkab organizmlar. Quruqlik organizmlari. Suvli muhit organizmlari.

Yer sharining faunistik va floristik oblastlari

Yer sharida tirik organizmlarning gorizontal va vertikal tarqalishi. Faunistik va floristik oblastlar. Oblastlar. Podoblastlar.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi chizmasi chizish .
2. Umumiy yer bilimi fanining rivojlanishini xronologik bosqichlari jadvalini tuzish
3. Buyuk geografik kashfiyotlar xaritasini chizish.
4. Quyosh sistemasi oid jadval tuzish
5. Yer sayyorasi o'lchamlari.
6. Gradus to'ri va uning elementlari, geografik koordinatalar
7. Geoxronologik jadval.
8. Yer yuzasining gipsografik va batigrafik egri chiziqlarini chizish.
9. Orollar va arxipelaglarni yozuvsiz kartaga tushirish
10. Yerning ichki tuzilishi sxemasi.
11. Yer yuzasining tektonik tuzilishi xaritasini tuzish va uning tahlili.
12. Yer po'sti va uni hosil qilgan qatlamlar sxemasi.
13. Yer yuzasi reliefi xaritasi va uning tahlili.
14. Yer sharidagi tog' tizmalari
15. Yer sharidagi vulqonlarni yozuvsiz kartaga tushirish
16. Berilgan yo'nalish bo'yicha relief profilini tuzish.
17. Okean suvining xususiyatlari: tiniqligi, sho'rliigi va harorati
18. Okean oqimlarini yozuvsiz kartaga tushirish
19. Dunyo okeani qismlarini yozuvsiz kartaga tushirish
20. Dengizlarni yozuvsiz kartaga tushirish
21. Yer shari daryolarini yozuvsiz kartaga tushirish
22. Yer shari ko'llarini yozuvsiz kartaga tushirish
23. Atmosferani vertikal tuzilishini chizish
24. Ob-havo elementlari: haroratni o'lchash.
25. Ob-havo elementlari: namlikni o'lchash.
26. Iqlim mintaqalarini yozuvsiz kartaga tushirish
27. Atmosfera bosimi va uni aniqlash.
28. Shamol guli va uni chizish
29. Yer yuzida shamollarning tarqalish xaritasini chizish.
30. Bulutlarni oq qog'ozga tushirish
31. Tuproq profilini chizish.
32. Tabiat zonalari xaritasini chizish.
33. Biosfera. Yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
34. Yer shari o'simlik va hayvonot dunyosining geografik tarqalishi
35. Tabiatda modda va energiyaning aylanma harakati
36. Inson va geografik muhit.

37. Yer yuzida aholining tarqalishi. Irlar.
38. Tabiiy resurslar va ularning tasniflash chizmasi.
39. Energiya, oziq-ovqat, chuchuk suv, xom ashyo muammolari.
40. Suv resurslari, muhofazasi va ulardan samarali foydalanish masalalari.
41. Tuproqlar klassifikatsiyasi.
42. O'rta Osiyo tabiiy geografik rayonlarini yozuvsiz kartaga tushiring
43. Dunyoning ekologik kartasini tahlili.
44. Tabiiy muhitni muhofaza qilish.
45. Alohida muhofaza etiladigan hududlar. O'zbekiston qo'riqxonalarini jadvalini tuzish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tabiiy geografik tadqiqotlarning zamonaviy metodlari (Eyler –Venn diagrammasi orqali ananaviy va zamonaviy tadqiqot metodlarini taqqoslash, zamonaviy metodlarning afzalliklarini ko'rsatish).

2. Geografiyaning rivojlanish bosqichlari (O'rta Osiyo misolida). Xronologik jadval tuzish va tahlil qilish.

3. Olam, galaktika, Quyosh sistemasi. (O. Shmit nazariyasi tahlilini o'tkazish, somon yo'li galaktikasi haqida faktlar topib qisqacha referat yozish).

4. Sayyoralar. (Sayyoralar o'lchamlariga doir jadvalni chizish, sayyoralar ma'lumotlarini taqqoslash)

5. Yer sayyorasi va uning evolyusiyasi. (materiklarning gorizontal siljishi gipotezasi chizmalarini chizish, Ko'priklar bo'lganligi gipotezasi, rotatsion nazariyalarni taqqoslash).

6. Geografik qobiq, uning tarkibi va tuzilishi haqida slayd tayyorlash va himoya qilib berish.

7. Litosfera va uning tuzilishi chizmasini chizish, yer po'sti qatlamlari ma'lumotlari asosida jadval tayyorlash.

8. Atmosfera va uning tuzilishi chizmasini chizish va qisqacha mustaqil ta'lim daftariga konspekt qilish.

9. Biosfera va uning tuzilishi haqida BBC teledasturi yoki Dunyo bo'ylab telekanallaridan videolar yuklab ularni o'rganish va mohiyatini yoritib berish.

10. Muzliklarning geografik tarqalishi. Eng yirik 3 ta muzlik haqida ma'lumotlar to'plab slayd tayyorlash.

11. Gidrosferaning suv hajmi ma'lumotlari haqidagi jadvalni tahlil qilish.

12. Landshaftlarning zonal va vertikal tabaqalanishi (O'rta Osiyo misolida).

13. Okean oqimlarining kelib chiqishiga ko'ra turlarini taqqoslash.

14. Provinsillik va uning yer sharida namoyon bo'lishi haqida konspekt tayyorlash.

15. Zilzila va zilzila markazlari. Eng yirik vayronagarchilikka olib kelgan 3 ta zilzila haqida ma'lumotlar to'plash va slayd tayyorlash

16. Ko'llar katlovinlari chizmalaridan namunalar chizish.

17. Daryolarning suv rejimiga ko'ra tiplari M. I. Livovich klassifikatsiyasini o'rganib konspekt tayyorlash.

18. Tog'li o'lkalarning gorizontal parchalanishi. Tog' sistemalarining joylanish qonuniyatlari mavzularida konspekt tayyorlash.

19. Karst jarayoni. Ochiq va yopiq karstlar chizmasini chizish va tahlil o'tkazish.

20. Fenologik kuzatishlar olib borish. (Har bir talaba o'zi yashash joyida)

21. Iqlim va iqlim o'zgarishi muammolariga bag'ishlangan konferenslar tahlilini o'tkazish.

22. Dunyoning global muammolariga oid yangi ma'lumotlar to'plash va konspekt tayyorlash.

23. O'z o'lkasi tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi tavsifi.

	<p>24. Qirg'oqlar va ular hosil qilgan relyef shakllari haqida konspekt tayyorlash.</p> <p>25. Alohida muhofaza etiladigan hududlar.(qo'riqxonalar, milliy bog'lar , buyurtmahonalar, biosfera rezervatlarini tashkil etilishi va mohiyatini yoritib konspekt tayyorlash)</p>
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • "Umumiy yer bilimi" fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti tadqiqot usullari; koinot, Quyosh sistemasi. Yer va uning Quyosh sistemasidagi o'rni; geografik qobiq, uning umumiy tavsifi va asosiy xususiyatlari hamda tarkibiy qismlari; litosfera, er yuzasi tuzilishning asosiy xususiyatlari; quruqlik yuzasidagi asosiy relef shakllari; gidrosfera va uning tarkibiy qismlari; okean suvining xususiyatlari va suvning harakatlari; quruqlikdagi suvlar va ularning geografik ishi; atmosfera, uning tarkibi va qatlamlari; radiatsiya balansi; havo bosimi, havo massalari va frontlari; past va yuqori bosim markazlari, siklon va antitsiklon; biosfera, hayotning tarqalish chegerasi, organizmlarning turlari; o'simliklar va tuproqlarning turlari, ularning tarqalishi; geografik qobiqning gorizontaal tuzilishi, geografik muhit va inson munosabatlarining geografik asoslariga oid nazariy qarashlar <i>haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • geografiya fanining rivojlanishini davrlashtirish; Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi hamda ularning geografik oqibatlarini tajribada ko'rsatib bera olish; relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar va relefning asosiy shakllarini ajratish, gipsografik egri chiziq va undan foydalanish; Dunyo okeanining tarkibiy qismlari va ularni xaritada topa olish; batigrafik egri chiziq va undan foydalanish; qoplama muzliklar va ular hosil qilgan relef shakllarini tushuntirib bera olish; daryolar keltirgan tog' jinslarini ajrata olish; shamollar hosil qilgan relef shakllarini ajrata olish va boshqa relef shakllaridan farqlay olish, ob-havo va uning elementlarini o'lchash asboblardan foydalana olish; ob-havo va iqlimiy jarayonlarni kuzatib borish; iqlim mintaqalari va issiqlik mintaqalarini xaritada ko'rsata olish va tavsiflab berish; tuproq, o'simlik va hayvonot olami turlarini amalda ajrata olish; atrof-muhit monitoringi bo'yicha kuzatishlar olib borish; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha xulosalar olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • Umumiy yer bilimining tadqiqot usullarini; Yer va uning asosiy o'lchamlari: og'irligi, shakli, o'lchamlarini; Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlarini; geografik qobiqning tarkibiy qismlarini; geografik qobiqning vertikal tuzilishini; asosiy tog' bo'lish bosqichlarini; relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlarni; Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlarini; okean suvining xususiyatlarini; shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollarni; radiatsiya balansini; atmosferadagi suv bug'i hamda nisbiy va mutloq namlikni; bulutlar, yog'inlar va ularning turlarini; ob-havo va uning elementlarini; iqlim hosil qiluvchi omillarni; iqlim mintaqalari va issiqlik mintaqalarini; tuproq va o'simliklarning tekislik va balandliklar bo'yicha tarqalishini; geografik qobiqning rivojlanishi qonuniyatlarini; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish muammolarini bilishi va ulardan foydalana olishi <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: darsliklar, o'quv qo'llanmalari, O'UM, elektron manbalar, dissertatsiyalar, monografiyalar, horijiy adabiyotlar va internet ma'lumotlari; "Bumerang", "Yelpig'ich", "Aqliy xujum", "Masofaviy ta'lim", "Zanjir", "Klaster" hamda "Muammoli dars"; amaliy mashg'ulotlar jarayonida fanga tegishli bo'lgan maxsus qurilmalar, jumladan globus, relef shakllari maketi, mavzuli kartalar, chizmalar va slaydlar</p>
5.	<p>VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish</p>

6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdunazarov O'Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M. Umumiy tabiiy geografiya. – Toshkent, Barkamol fayz media nashriyoti. 2018. 328 b. 2. Vahobov H. Umumiy Yer bilimi. Darslik. –Toshkent: Bilim, 2005. 3. Геренчук К.И., Боков В.А. Черванов И.Г. Общее землеведение. -М.: Высшая школа. 1984. -256 с. 4. Мильков Ф.Н. Общее землеведение. -М.: Высшая школа, 1990. 5. Савцова Т.М. Общее землеведение. -М.: Академия, 2013. 6. Шубаев Л.П. Умумий ер билими. –Ташкент: Ўқитувчи, 1975. 7. Goudie A. Physische Geographie. Germany, 1997. 8. World Regional Geography (This text was adapted by The Saylor Foundation under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-ShareAlike 3.0 License without attribution as requested by the work's original creator or licensee). www.saylor.org/books. 9. Nicholas Clifford, Shaun French and Gill Valentine. Key Methods in Geography. 2010. 10. Robert E. Gabler, James F. Petersen, L. Michael Trapasso. Essentials of Physical Geography. 2007. Thomson Brooks/Cole, a part of The Thomson Corporation. Thomson, the Star logo, and Brooks/Cole are trademarks used herein under license. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ibragimova R., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. –Toshkent, 2017. 2. Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А. Ўрта осие табиий географияси. -Тошкент.: Ўқитувчи, 2002. 4. Гадоев К., Бердиева С. Жаҳонгашта сайёҳ-олимлар. -Тошкент.: Ўзбекистон нашриёти, 2011. 5. Гадоев К., Бердиева. Ўзбек география фани фидойилари. -Тошкент.: Ўзбекистон нашриёти, 2015. 6. Зокиров Ш.С., Egamov B.Y. Geografiya tarixi: Erotosfendan Koshg'ariygacha. -Toshkent, "Chashma print", 2012. 7. Зокиров Ш.С., Тошов Х.Р. География тарихи. -Бухоро, "Дурдона", 2015. 8. Zoкиrov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. -Toshkent. Turon zamin ziyo, 2016. 9. Ҳикматов Ф.Х., Сирлибоева З.С., Айтбаев Д.П. Қўллар ва сув омборлари географияси, гидрологик хусусиятлари. – Toshkent: Университет, 2000. 10. Масудов Х. ва бошқ. Умумий ер билимидан лаборатория машғулоти. –Тошкент. Ўқитувчи, 1986. <p>Axborot manbalari (saytlar): www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. www.undp.uz www.gwpcacena.org www.ziyonet.uz www.geogr/msu.ru www.MGPU.ru/materials/GEOGRAPH.swf</p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining _____dagi _____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan. 2022 yil</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: Eshquvvatov B.B. – SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası PhD katta o'qituvchisi. Do'sbekov S.K. - SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Nazarov X.T. – SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası dotsenti, b.f.n. Jo'raqulov X. – SamDU Gidrometeorologiya kafedrası dotsenti, g.f.n.</p>

Fanning o'quv dasturi Hidrometeorologiya kafedrasining 2022 yil "29" avgustdagi №1-son yigilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

dots. S.A.Xaydarov

Fanning o'quv dasturi fakultet o'quv-uslubiy kengashining 2022 yil "30" avgustdagi №1-son yigilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet uslubiy kengashi raisi:

dots. B.Fayzullayev

Fanning o'quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2022 yil "30" avgustdagi №1-sonli bayonnoma)

Fakultet dekani

dots. A.X.Ravshanov

Mutaxassislik fanlari bo'yicha fan dasturi sillabuslarni xorij tajribasini o'rgangan holda transformatsiya qilish bo'yicha ishchi guruh:

Rais: M.E.Mo'minov

imzo

a'zo: B.Sh.Safarov

imzo

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

dots.Sh.Muranov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

prof.A.Soleev